



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



www.uza.uz


№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 178 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar	90
Djurakulova Munira Suyunovna	
Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	97
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания	102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна	
Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi	108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi	



Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna	
Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida).....	115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	121
Kadirova Dildora Najadbekovna	
The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges	125
Moxinur Yusupova	
Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish.....	131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbanovna	
Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati	136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi	
Art badiiy ta'limning rivojida klaster yondashuvi	140
A. S. Umarov	
Simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari.....	143
Turg'unova Mohinaxon Akmaljon qizi	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (empirik tadqiqot).....	150
Toshpolatova Robiya Akmal qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida milliy mafkurani shakllantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish	154
Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Esanova Mehrgul Qurbanazarovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi dizartriyaning yengil shakliga ega 6-7 yoshli bolalardagi nutq kamchiliklarini o'yin texnologiyalari asosida korreksiyalashning samaradorligi.....	159
Baxadirova Zulfizar Azimbayevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ va ijtimoiy-hissiy kompetensiyalarni baholashning diagnostik vositalarini tanlash va qo'llash metodikasi.....	163
Abdullayeva Munojot Muxtorovna	
Talabalarni o'quvchilarning tibbiy tashxisiga mos pedagogik yondashuvlardan foydalanishga o'rgatish usullari.....	169
Yuldashova Iroda Dilshodovna	
Uzoq muddat davolanishga muhtoj bolalar uchun ta'lim muassasalarining tashkil etilishi.....	174
Yusupjanova Shaxnoz Mirzatillayevna	



SIMULYATSION O'YIN MUHITIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING IJTIMOIY-HISSIY KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

Turg'unova Mohinaxon Akmaljon qizi

Namangan davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada simulyatsion o'yin muhitining maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy kompetentlikni shakllantirishdagi o'rni yoritiladi. Maktabgacha yosh davri bolaning atrofdagilar bilan muloqotga kirishishi, o'z his-tuyg'ularini anglay boshlashi, boshqalarning holatini tushunishi va oddiy ijtimoiy qoidalarga amal qilishni o'rganishi uchun muhim bosqich hisoblanadi. Aynan shu davrda o'yin faoliyati bolaning tabiiy rivojlanish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Simulyatsion o'yinlar esa bolaga real hayotdagi vaziyatlarni xavfsiz va qiziqarli shaklda sinab ko'rish imkonini beradi. Maqolada "do'kon", "shifokor", "oila", "bog'cha", "mehmon kutish" kabi rolli-simulyatsion o'yinlar orqali bolalarda hamkorlik qilish, navbat kutish, kechirim so'rash, yordam berish, o'z fikrini bildirish, his-tuyg'ularini boshqarish kabi ko'nikmalar rivojlanishi tahlil qilinadi. Shuningdek, tarbiyachining o'yin jarayonidagi yo'naltiruvchi roli, o'yin muhitini to'g'ri tashkil etish va bolalarning hissiy holatini kuzatish masalalariga e'tibor qaratiladi. Tadqiqotda simulyatsion o'yinlar maktabgacha ta'limda bolani faqat bilim olishga emas, balki ijtimoiy hayotga tayyorlashga xizmat qiluvchi samarali pedagogik vosita sifatida baholanadi.

Kalit so'zlar: simulyatsion o'yin, maktabgacha ta'lim, ijtimoiy-hissiy kompetentlik, bola rivojlanishi, rolli o'yin, muloqot, hamkorlik, his-tuyg'ular, tarbiyachi, o'yin muhiti.

Abstract: This article discusses the role of a simulation game environment in developing social-emotional competence in preschool children. Preschool age is an important period when a child begins to communicate with others, understand personal emotions, notice the feelings of peers, and follow simple social rules. At this stage, play is not only entertainment but also a natural way of learning and development. Simulation games help children experience real-life situations in a safe, simple, and interesting form. The article examines how role-based simulation games such as "shop", "doctor", "family", "kindergarten", and "welcoming guests" can support the development of cooperation, waiting for one's turn, apologizing, helping others, expressing personal opinions, and managing emotions. Special attention is given to the educator's guiding role, the organization of the play environment, and the observation of children's emotional behaviour during the game. The study shows that simulation games in preschool education can serve as an effective pedagogical tool that prepares children not only for learning but also for social life.

Key words: simulation game, preschool education, social-emotional competence, child development, role play, communication, cooperation, emotions, educator, play environment.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль симуляционной игровой среды в формировании социально-эмоциональной компетентности детей дошкольного возраста. Дошкольный возраст является важным периодом, когда ребёнок начинает общаться с окружающими, понимать свои чувства, замечать эмоциональное состояние других детей и усваивать простые правила поведения. В этот период игра выступает не только как развлечение, но и как естественный способ развития ребёнка. Симуляционные игры позволяют детям в безопасной и интересной форме проживать ситуации, похожие на реальные жизненные события. В статье анализируется значение таких ролевых игр, как "магазин", "врач", "семья", "детский сад", "приём гостей", в развитии у детей навыков сотрудничества, ожидания очереди, извинения, помощи другим, выражения своего мнения и управления эмоциями. Особое внимание уделяется направляющей роли воспитателя, правильной организации игровой среды и наблюдению за эмоциональным поведением детей в ходе игры. В исследовании симуляционная игра рассматривается как эффективное педагогическое средство, которое помогает готовить ребёнка не только к обучению, но и к жизни в обществе.

Ключевые слова: симуляционная игра, дошкольное образование, социально-эмоциональная компетентность, развитие ребёнка, ролевая игра, общение,

**KIRISH**

Maktabgacha yosh davri bolaning shaxs sifatida shakllanishida eng muhim bosqichlardan biri hisoblanadi. Aynan shu davrda bola atrofidagi odamlar bilan muloqot qilishni, o'z fikrini bildirishni, his-tuyg'ularini anglashni va boshqalarning holatini tushunishni o'rganadi. Bola uchun ijtimoiy hayot dastlab oddiy munosabatlardan boshlanadi: do'sti bilan o'yinchoqni bo'lishish, navbat kutish, xafa bo'lgan tengdoshini yupatish, kattalar gapiga quloq solish yoki o'z istagini to'g'ri ifodalash. Shu jihatdan ijtimoiy-hissiy kompetentlik maktabgacha ta'limda alohida e'tibor talab qiladigan muhim yo'nalishdir.

Ijtimoiy-hissiy kompetentlik deganda bolaning o'z his-tuyg'ularini taniy olishi, ularni boshqarishga harakat qilishi, boshqa bolalar bilan muloqotga kirishishi, hamkorlik qilishi va oddiy ijtimoiy qoidalarga amal qilishi tushuniladi. Bu ko'nikmalar bolaga nafaqat bog'cha muhitida, balki keyingi maktab hayotida ham zarur bo'ladi. Agar bola o'z hissiyatini tushunsa, u jahli chiqqanda urishish o'rniga gapirishni, xafa bo'lganda o'zini ifodalashni, do'sti qiynalayotganini ko'rganda yordam berishni o'rganadi. Bunday sifatlar esa birdaniga shakllanmaydi, ular kundalik tarbiya, muloqot va o'yin jarayonida asta-sekin rivojlanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yin eng tabiiy faoliyat turi hisoblanadi. Bola o'yin orqali atrofdagi hayotni tushunadi, kattalar harakatiga taqlid qiladi, turli rollarni sinab ko'radi va o'z tajribasini boyitadi. Shu sababli simulyatsion o'yinlar ijtimoiy-hissiy kompetentlikni shakllantirishda katta imkoniyatga ega. "Shifokor", "Do'kon", "Oila", "Bog'cha", "Mehmon kutish" kabi o'yinlarda bola real hayotga o'xshash vaziyatga kiradi. U bemorga mehr ko'rsatadi, xaridor bilan muloqot qiladi, navbat kutadi, kelishadi, yordam so'raydi yoki yordam beradi. Bunday jarayonda bola faqat o'ynamaydi, balki ijtimoiy munosabatlarni amalda o'rganadi.

Mashhur psixolog L. S. Vygotskiy bolaning rivojlanishida o'yinning o'rniga katta ahamiyat bergan. U o'yin haqida: "O'yin rivojlanish manbai bo'lib, bola uchun yaqin rivojlanish zonasini yaratadi", degan fikrni bildirgan. Bu qarashga ko'ra, bola o'yin vaqtida oddiy hayotda hali to'liq bajara olmaydigan harakatlarni bajarishga urinadi, kattalar rolini bajaradi, qoidalarga amal qiladi va o'z xatti-harakatini boshqarishni mashq qiladi. Demak, o'yin bolaning hozirgi imkoniyati bilan kelajakdagi rivojlanishi o'rtasida ko'priq vazifasini bajaradi.

Simulyatsion o'yin muhitining ahamiyati shundaki, u bolaga xatodan qo'rqmasdan harakat qilish imkonini beradi. Bola shifokor rovida bemorga qanday gapirishni, sotuvchi rovida xaridor bilan qanday muomala qilishni, oila o'yinida mehr va mas'uliyatni qanday ko'rsatishni sinab ko'radi. Tarbiyachi esa bu jarayonda bevosita buyruq beruvchi emas, balki yo'naltiruvchi, kuzatuvchi va zarur paytda yordam beruvchi shaxs sifatida ishtirok etadi. To'g'ri tashkil etilgan o'yin muhiti bolada muloqot, hamkorlik, sabr, mehr, o'zini tutish va boshqalarning hissiyotiga e'tibor berish kabi sifatlarni rivojlantiradi.

Mazkur maqolada simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Unda o'yin faoliyatining tarbiyaviy ahamiyati, bolalarning hissiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri, tarbiyachining o'rnini hamda rolli-simulyatsion vaziyatlarning pedagogik imkoniyatlari yoritiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish masalasi bir tomondan bola psixologiyasi, ikkinchi tomondan maktabgacha pedagogika bilan bevosita bog'liq. Bu mavzuda yozilgan ilmiy manbalarni ko'rib chiqqanda, aksariyat olimlar o'yinni bolalar rivojlanishining tabiiy va eng samarali vositasi sifatida baholaganini ko'rish mumkin. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bola uchun o'yin oddiy vaqt o'tkazish emas, balki hayotni tushunish, kattalar faoliyatiga taqlid qilish, muloqot qilish va o'zini tutishni o'rganish jarayonidir.

Bu borada L. S. Vygotskiy qarashlari muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Vygotskiy bola rivojlanishida ijtimoiy muhit, kattalar bilan muloqot va o'yin faoliyatining o'rnini alohida ta'kidlagan. Uning fikricha, bola o'yin jarayonida o'zining kundalik imkoniyatidan biroz yuqoriroq harakat qiladi, ya'ni kattalar rolini bajaradi, qoidalarga bo'ysunadi, o'z xatti-harakatini boshqarishga urinadi. Masalan, "Shifokor" o'yinida bola bemorga g'amxo'rlik qilishni, "Do'kon" o'yinida xaridor bilan gaplashishni, "Oila" o'yinida mehr va mas'uliyatni ifodalashni o'rganadi. Shu jihatdan Vygotskiy nazariyasi simulyatsion o'yinlarning ijtimoiy-hissiy tarbiyadagi ahamiyatini tushuntirishda asosiy manbalardan biri hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy va hissiy rivojlanishini o'rganishda S. A. Denham tadqiqotlari ham alohida ahamiyatga ega. Denham bolalarda emotsional kompetentlik erta yoshdanoq shakllanishini va bu keyingi ijtimoiy munosabatlarga kuchli ta'sir qilishini ko'rsatadi. Uning tadqiqotlarida bola o'z hissiyatini tanishi, boshqalarning his-tuyg'usini tushunishi, jahli chiqqanda o'zini boshqarishi va tengdoshlari bilan ijobiy munosabatga kirishishi muhim ko'nikmalar sifatida qaraladi. Bu fikrlar simulyatsion o'yin muhitiga juda mos keladi. Chunki aynan o'yin davomida bola xafa bo'lish, xursand bo'lish, kelishish, kutish, yordam so'rash yoki kechirim so'rash kabi holatlarni tabiiy ravishda boshdan kechiradi.



D. S. Weisberg, K. Hirsh-Pasek va R. M. Golinkoffning yo'naltirilgan o'yin haqidagi tadqiqotlari ham mavzu uchun muhimdir. Bu olimlar bolalar erkin o'ynashi kerakligini inkor etmaydi, lekin tarbiyachi tomonidan yengil yo'naltirilgan o'yin ta'limiy natijani kuchaytirishini ta'kidlaydi. Ya'ni, bola o'yinda faol bo'ladi, lekin tarbiyachi vaziyatni to'g'ri tashkil qiladi, kerakli savol beradi, bolalarni bir-biri bilan muloqotga undaydi. Masalan, "Mehmon kutish" o'yinida tarbiyachi: "Mehmon kelganda qanday salom beramiz?", "Do'sting xafa bo'lsa nima qilasan?" kabi savollar bilan bolalarning hissiy va ijtimoiy javobini faollashtiradi. Bu yondashuv simulyatsion o'yinlarni faqat ko'ngilochar mashg'ulot emas, balki tarbiyaviy vosita sifatida ko'rishga yordam beradi.

L. E. Berkning sotsiodramatik o'yin va o'zini boshqarish bo'yicha tadqiqotlari ham ushbu mavzuni boyitadi. Berk maktabgacha yoshdagi bolalarda o'zini tutish, qoidaga amal qilish, navbat kutish va hissiyotlarni boshqarish ko'nikmalari aynan rolli o'yinlar jarayonida rivojlanishini ko'rsatadi. Bola o'yinda "Ona", "Shifokor", "Tarbiyachi", "Sotuvchi" kabi rollarni bajarar ekan, u faqat so'zlarni takrorlamaydi, balki shu rolga mos xatti-harakatni ham bajaradi. Masalan, shifokor rolidagi bola bemorni tinchlantiradi, sotuvchi rolidagi bola xaridor bilan muloyim gaplashadi. Bu esa bolaning ichki nazorati va ijtimoiy munosabat ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

O'zbek olimlaridan F. R. Qodirova maktabgacha pedagogika masalalarini yoritishda o'yin faoliyatining tarbiyaviy ahamiyatiga alohida e'tibor beradi. Qodirova va hammualiflar tomonidan tayyorlangan "Maktabgacha pedagogika" darsligida maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlanishi, ta'lim-tarbiya jarayonida o'yin, muloqot, mehnat va ijodiy faoliyatning o'rni keng tushuntiriladi. Mazkur manbada o'yin bolalarning faolligini oshiruvchi, ularni atrof-muhit bilan tanishtiruvchi va ijtimoiy tajribani egallashga yordam beruvchi vosita sifatida talqin qilinadi. Bu qarash simulyatsion o'yin muhitini tashkil qilishda muhim amaliy asos bo'la oladi.

Yana bir o'zbek pedagog olimi P. Yusupovning maktabgacha tarbiya pedagogikasiga oid ishlari ham mavzu bilan bevosita bog'liq. Yusupova maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida tarbiyachi shaxsi, mashg'ulot muhiti, o'yin va kundalik faoliyatning o'zaro bog'liqligiga e'tibor qaratadi. Uning yondashuvida bola shaxsini shakllantirishda faqat bilim berish emas, balki bolaning odobi, muloqoti, his-tuyg'usi va ijtimoiy xulqini tarbiyalash ham muhim vazifa sifatida qaraladi. Shu jihatdan Yusupova qarashlari simulyatsion o'yin orqali bolalarda mehr, hamkorlik, tartib, o'zini tutish va boshqalarni tushunish kabi sifatlarni rivojlantirish masalasiga mos keladi.

So'nggi yillarda Scopus bazasidagi ilmiy maqolalarda ham o'yin asosida ta'lim berishning ijtimoiy-hissiy rivojlanishga ta'siri keng muhokama qilinmoqda. Masalan, o'yin asosidagi ta'lim bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda bolalarda muloqot, hamkorlik, motivatsiya, emotsional barqarorlik va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalari yaxshilanishi ko'rsatilgan. Bu natijalar simulyatsion o'yinlar maktabgacha ta'limda faqat bilim berish uchun emas, balki bolani hayotiy vaziyatlarga tayyorlash uchun ham zarurligini tasdiqlaydi.

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, simulyatsion o'yin muhitining asosiy kuchi uning hayotga yaqinligidir. Bola o'yinda real hayotdagi vaziyatlarni o'ziga mos, xavfsiz va qiziqarli shaklda sinab ko'radi. U xato qilishi, qayta urinishi, do'sti bilan kelishishi, his-tuyg'usini bildirishi va boshqalarning holatini tushunishni o'rganishi mumkin. Shuning uchun simulyatsion o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy kompetentlikni shakllantirishning samarali pedagogik vositasi sifatida qaraladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda simulyatsion o'yin muhitida maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy-hissiy kompetentligini shakllantirish imkoniyatlarini o'rganishda kompleks ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tizimli yondashuv, faoliyatga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv hamda ijtimoiy-konstruktivistik ta'lim nazariyalari tashkil etdi.

Tadqiqotni amalga oshirish jarayonida ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-taqqoslash, pedagogik kuza-tish, tahlil va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Dastlab mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar o'rganilib, simulyatsion o'yinlarning maktabgacha ta'limdagi pedagogik ahamiyati, bolalarning ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga ta'siri hamda ushbu yo'nalishdagi zamonaviy ilmiy qarashlar qiyosiy tahlil qilindi.

Qiyosiy-taqqoslash metodi yordamida turli mualliflarning ilmiy yondashuvlari o'zaro solishtirildi hamda simulyatsion o'yinlarning bolalarda muloqot, hamkorlik, his-tuyg'ularni boshqarish, muammoli vaziyatlarni hal etish va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini rivojlantirishdagi o'rni baholandi. Pedagogik kuzatish metodi orqali maktabgacha ta'lim jarayonida qo'llaniladigan rolli-simulyatsion o'yinlarning tarbiyaviy imkoniyatlari tahlil qilinib, bolalarning o'yin davomida namoyon etadigan ijtimoiy va hissiy xatti-harakatlari ilmiy jihatdan tavsiflandi.

Shuningdek, tahlil va sintez metodlari asosida olingan ilmiy ma'lumotlar umumlashtirilib, simulyatsion o'yin muhitining maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy kompetentlikni rivojlantirishdagi pedagogik imkoniyatlari yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirildi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqot natijalarining izchilligi, ilmiy asoslanganligi va ishonchligini ta'minlashga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy kompetentlikni shakllantirishda simulyatsion o'yinlar alohida o'rin tutadi. Chunki bu yoshdagi bola ko'proq eshitganini emas, o'zi bajarganini yaxshi o'zlashtiradi. Tarbiyachi "Do'stingga yordam ber", "Navbat kut", "Kechirim so'ra", deb tushuntirishi mumkin, lekin bola buni real vaziyatga o'xshash o'yin ichida bajarganda mazmunini chuqurroq tushunadi. Shu sababli "Do'kon", "Shifokor", "Oila", "Bog'cha", "Mehmon kutish" kabi rol-simulyatsion o'yinlar bolalarning kundalik ijtimoiy tajribasini boyitishga xizmat qiladi.

"Do'kon" o'yini bolalarda muloqot qilish, navbat kutish, so'rash va javob berish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, bir bola sotuvchi, boshqasi xaridor rolini bajaradi. Xaridor: "Menga non bering", "Bu qancha turadi?", "Rahmat", kabi gaplarni ishlatadi. Sotuvchi esa: "Marhamat", "Navbatingizni kuting", "Yana nima kerak?", kabi javoblar beradi. Oddiy ko'ringan bunday vaziyatda bola ijtimoiy munosabatning bir nechta qoidasini o'rganadi. U boshqalarning ham navbati borligini tushunadi, muloyim gapirishga odatlanadi, kerakli narsani so'rashni mashq qiladi. Ba'zan bolalar o'yin davomida: "Men birinchi edim", "Yo'q, avval men olaman", deb tortishib qolishi ham mumkin. Aynan shunday paytda tarbiyachi ularni tinch yo'l bilan kelishishga o'rgatadi. Demak, "Do'kon" o'yini faqat savdo jarayonini emas, balki sabr, tartib, hurmat va muloqot madaniyatini ham shakllantiradi (1-rasm).



"Shifokor" o'yini esa bolalarda yordam berish, rahm-shafqat, g'amxo'rlik va boshqalarning holatini tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Bola shifokor roliga kirganida bemorga mehr bilan munosabatda bo'lishi kerakligini sezadi. U: "Qayeringiz og'riyapti?", "Qo'rqmang, hozir yordam beraman", "Dori ichsangiz, tuzalib ketasiz", kabi gaplarni aytadi. Bemor rolidagi bola esa o'z holatini tushuntirishga harakat qiladi. Bu jarayonda bolalar bir-birining hissiy holatini sezishga o'rganadi. Masalan, bemor qo'rqayotgan bo'lsa, shifokor uni tinchlantiradi. Shu orqali bola boshqaning tashvishini ko'rish va unga javob qaytarishni mashq qiladi. Bu o'yin, ayniqsa, bolalarda mehribonlik va yordam berish istagini kuchaytiradi (2-rasm).





“Oila” o'yini maktabgacha yoshdagi bolalar uchun juda tabiiy va yaqin o'yinlardan biridir. Chunki bola oilaviy munosabatlarni har kuni kuzatadi. O'yin davomida kimdir ona, kimdir ota, kimdir farzand, kimdir buvi yoki aka-uka rolini bajaradi. Bu jarayonda bola kattalarning gapirish uslubi, mehr ko'rsatishi, mas'uliyatli harakati va ba'zan tanbeh berishini ham takrorlaydi. Masalan: “Bolam, ovqatlanib ol”, “Yig'lama, hozir yordam beraman”, “Kelinglar, birga yig'ishtiramiz”, kabi gaplar bolalarning oiladagi ijtimoiy rollarni tushunishiga yordam beradi. “Oila” o'yinida hamkorlik qilish ko'nikmasi ham ko'p namoyon bo'ladi. Bolalar birgalikda dasturxon tuzadi, qo'g'irchoqqa qaraydi, uy yig'ishtiradi. Shu orqali ular mas'uliyat, mehr, yordam va birgalikda harakat qilishni o'rganadi (3-rasm).



“Bog'cha” o'yini bolalarga o'z kundalik hayotini qayta tasvirlash imkonini beradi. Bu o'yinda bola tarbiyachi, tarbiyalanuvchi yoki yordamchi roliga kirishi mumkin. Tarbiyachi rolidagi bola boshqalarga topshiriq beradi, she'r aytiradi, o'yinchoqlarni tartibga keltirishni so'raydi. Bu jarayonda bola tarbiyachining xatti-harakatlarini kuzatgani va ichki qabul qilgani namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, “Bog'cha” o'yini bolalar orasidagi munosabatlarni ham ochib beradi. Kim yetakchilik qilishni xohlaydi, kim tortinchoq, kim do'stiga yordam beradi, kim qoidaga amal qilishda qiynaladi – bularning barchasi o'yin davomida ko'rinadi. Tarbiyachi bunday vaziyatlarni kuzatib, bolalar bilan alohida ishlashi mumkin (4-rasm).



“Mehmon kutish” o'yini esa bolalarda odob, muloqot madaniyati, hurmat va o'z fikrini bildirish ko'nikmalarini shakllantirishda foydalidir. Bu o'yinda bolalar mehmonni kutib olish, salomlashish, joy ko'rsatish, dasturxon yozish, suhbatlashish kabi harakatlarni bajaradi. Masalan: “Assalomu alaykum, xush kelibsiz”, “Marhamat, o'tiring”, “Choy ichasizmi?”, kabi iboralar bolaga muomala madaniyatini o'rgatadi. Shu bilan birga, mehmon



bo'lgan bola ham o'zini tutishni, minnatdorlik bildirishni va boshqalarning mehnatini qadrlashni o'rganadi. Bunday o'yinlarda milliy tarbiya unsurlari ham tabiiy ravishda beriladi. Bola kattalarga hurmat, mehmonnavozlik, muloyim so'zlash va samimiy munosabatni amalda ko'radi (5-rasm).



Simulyatsion o'yinlarning muhim tomoni shundaki, ular bolaga hissiyotlarini boshqarishni o'rgatadi. O'yin davomida bola har doim ham xohlagan rolini olmaydi. Masalan, hamma "Shifokor" bo'lishni xohlaydi, lekin kimdir bemor, kimdir hamshira bo'lishi kerak. Ana shu vaziyatda bola kutishni, kelishishni va o'z istagini nazorat qilishni o'rganadi. Ba'zan o'yinchoq talashish, navbatga rozi bo'lmaslik, rol taqsimotidan norozi bo'lish kabi holatlar yuz beradi. Bunday vaziyatlar salbiy holatdek ko'rinsa ham, aslida tarbiyaviy imkoniyatdir. Chunki bola aynan shu jarayonda kechirim so'rash, do'stini tinglash, o'z fikrini aytish va muammoni tinch yo'l bilan hal qilishni o'rganadi.

Kechirim so'rash ko'nikmasi ham o'yinlarda tabiiy shakllanadi. Masalan, bola do'stining o'yinchoqini ruxsatsiz olib qo'ysa yoki o'yin jarayonida uni xafa qilib qo'ysa, tarbiyachi vaziyatni keskinlashtirmasdan: "Do'sting xafa bo'lib qoldi, unga nima deyish mumkin?" deb yo'naltirishi mumkin. Shunda bola: "Kechir", "Men bilmay qoldim", "Endi bunday qilmayman", kabi iboralarni ishlatishga o'rganadi. Muhimi, bu so'zlar yodlangan qoida sifatida emas, real holatga javob sifatida aytiladi. Shu bois o'yin jarayonida shakllangan kechirim so'rash odati bolaning keyingi munosabatlarda ham asta-sekin mustahkamlanadi.

O'z fikrini bildirish ham simulyatsion o'yinlarda rivojlanadigan muhim ko'nikmalardan biridir. Ba'zi bolalar tortinchoq bo'ladi, gapirishdan uyaladi yoki o'z xohishini aniq ayta olmaydi. Rolli o'yinlar ularga bunday to'siqni yengishga yordam beradi. Masalan, "Do'kon" o'yinida bola xaridor sifatida nima olmoqchi ekanini aytadi, "Shifokor" o'yinida bemor qayeri og'riyotganini tushuntiradi, "Mehmon kutish" o'yinida esa mehmon yoki mezbob sifatida suhbatga kirishadi. Shunday qilib, bola o'z fikrini qisqa, tushunarli va vaziyatga mos ifodalashni mashq qiladi.

Umuman olganda, simulyatsion o'yinlar maktabgacha yoshdagi bolani hayotga yaqin vaziyatlar orqali tarbiyalaydi. Bu o'yinlarda bola faqat rol bajarmaydi, balki munosabatga kirishadi, his qiladi, xato qiladi, tuzatadi, kelishadi va o'rganadi. Shu sababli bunday o'yinlarni maktabgacha ta'lim jarayonida muntazam va maqsadli tashkil etish zarur. Tarbiyachi esa har bir o'yinni shunchaki bandlik vositasi sifatida emas, balki bolaning ijtimoiy-hissiy rivojlanishiga xizmat qiladigan tarbiyaviy jarayon sifatida ko'ra olishi kerak.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy-hissiy kompetentlikni shakllantirish ularning keyingi ta'limi, tengdoshlari bilan munosabati va umumiy shaxsiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega. Bola bu davrda o'z hissiyotlarini anglashni, boshqalarning holatini tushunishni, muloqot qilishni va oddiy ijtimoiy qoidalarga amal qilishni asta-sekin o'rganadi. Bu jarayonni tabiiy va samarali tashkil etishda simulyatsion o'yinlar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Maqolada ko'rib chiqilgan "Do'kon", "Shifokor", "Oila", "Bog'cha", "Mehmon kutish" kabi rol-simulyatsion o'yinlar bolalarning kundalik hayotga yaqin vaziyatlarda o'zini sinab ko'rishiga imkon beradi. Bunday o'yinlarda bola faqat rol bajarmaydi, balki boshqalar bilan kelishadi, navbat kutadi, yordam beradi, kechirim so'raydi, o'z fikrini bildiradi va his-tuyg'ularini boshqarishga harakat qiladi. Aynan shu jihatlar ijtimoiy-hissiy kompetentlikning asosiy ko'rinishlari hisoblanadi.



Tahlillar shuni ko'rsatadiki, simulyatsion o'yinlar bolalar uchun tushunarli, qiziqarli va xavfsiz muhit yaratadi. Bola o'yin davomida xato qilishi, qayta urinishi, do'stining holatini tushunishi va muammoni tinch yo'l bilan hal qilishni o'rganadi. Bu esa oddiy nasihat yoki tushuntirishga qaraganda samaraliroq natija beradi. Chunki bola o'yin orqali bilimni tayyor holda qabul qilmaydi, balki uni o'z tajribasi orqali his qiladi.

Shuningdek, tarbiyachining o'yin jarayonidagi roli ham muhimdir. Tarbiyachi o'yinni to'g'ri tashkil etsa, bolalarga rollarni adolatli taqsimlasa, kerakli vaziyatda savol yoki muloyim yo'naltirish orqali yordam bersa, simulyatsion o'yinlar tarbiyaviy mazmunga ega bo'ladi. Aks holda o'yin faqat vaqt o'tkazish shaklida qolib ketishi mumkin. Shuning uchun bunday o'yinlar maktabgacha ta'lim jarayonida maqsadli, izchil va bolalarning yosh xususiyatlariga mos holda qo'llanishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, simulyatsion o'yin muhiti maktabgacha yoshdagi bolalarda hamkorlik, muloqot, mehr, sabr, kechirimlilik, yordam berish va o'zini boshqarish kabi sifatlarni rivojlantirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Bu esa bolani nafaqat maktabga, balki ijtimoiy hayotga ham tayyorlaydi. Shu sababli simulyatsion o'yinlardan maktabgacha ta'limda samarali pedagogik vosita sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Выготский Л. С. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
2. Denham S. A., Blair K. A., DeMulder E., Levitas J., Sawyer K., Auerbach-Major S., Queenan P. Preschool Emotional Competence: Pathway to Social Competence? // Child Development. 2003. Vol. 74, No. 1. P. 238–256. DOI: 10.1111/1467-8624.00533.
3. Weisberg D. S., Hirsh-Pasek K., Golinkoff R. M. Guided Play: Where Curricular Goals Meet a Playful Pedagogy // Mind, Brain, and Education. 2013. Vol. 7, No. 2. DOI: 10.1111/mbe.12015.
4. Berk L. E., Meyers A. B. The Role of Make-Believe Play in the Development of Executive Function // American Journal of Play. 2013.
5. Qodirova F. R., Toshpo'latova Sh. Q., Qayumova N. M., A'zamova M. N. Maktabgacha pedagogika. Toshkent: Tafakkur, 2019.
6. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. Toshkent: O'qituvchi, 1993.
7. Alotaibi M. S. Game-based Learning in Early Childhood Education: A Systematic Review and Meta-analysis // Frontiers in Psychology. 2024. Vol. 15. Article 1307881. DOI: 10.3389/fpsyg.2024.1307881.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.